O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA’LIM VA ILM-FAN VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI



“O‘ZBEK TILINING GLOBAL MAQOMI VA NUFUZINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI”

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI







2026-yil
16-oktabr

ZAMONAVIY O‘ZBEK BADIIY MATNLARIDA ERTAK ELEMENTLARINING INTERTEKSTUAL XUSUSIYATLARI

INTERTEXTUAL FEATURES OF FAIRY TALE ELEMENTS IN MODERN UZBEK LITERARY TEXTS

DOI:10.52773/tsuull.conf.2026.10.16/CMBF2815

Xomidova Mahfuzaxon Farhodjon qizi
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti doktoranti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
mahfuzaxon.xomidova@mail.ru
ORCID: 0000-0002-3559-0448

Annotation. *The article studies the features of the fairy tale as an intertextual source in a literary text on a scientific and theoretical basis. The purpose of the study is to identify the language units that create the fairy tale intertext, to reveal their semantic and functional changes in a new literary text and their linguopoetic functions. In this article, based on intertextual analysis, units referring to the fairy tale, allusions and reminiscences are identified. Through lexical-semantic and contextual analysis, their changes in content are shown. It is also analyzed that fairy tale-specific units are an important means of expanding the semantic richness, imagery and artistic expression possibilities of the literary text as an intertext.*

Keywords: *intertextuality, precedent unit, fairy tale, literary text, intertextual communication, allusion, cliché-patterns, lexical-semantic transformation, context, semantic change.*

Intertekstuallik kategoriyasining matnda namoyon bo‘lishida muayyan xalqqa xos folklor namunalari muhim ahamiyatga egadir. Folklor janrlari: mif, doston, ertak, afsona va rivoyatlar, qo‘shiqlar, maqollar intertekstuallikning asosini tashkil qiladi. Xalq ertaklari intertekstuallikni hosil qiluvchi eng kuchli presedent manbalardan biridir. Ularning presedentlik xususiyati shundaki, ertaklar muayyan xalq, millat va madaniyatga daxldor bo‘lib, uning a’zolariga juda yaxshi tanish bo‘ladi. Shu bois kundalik hayotda, badiiy matnlarda, OAV va media matnlarda to‘liq bir vaziyat, tushuncha yoki xarakterni tasvirlash uchun o‘ziga xos kod vazifasini bajarib, intertekstuallikni hosil qiladi. Shuningdek,

ertaklarga xos klishe-qoliplar, onomastik birliklar, vaziyatlar, iboralar yangi matnlarda qo‘shimcha va ekspressiv ma’no hosil qilishi bilan ham ahamiyatlidir. Quyida o‘zbek badiiy matnlarida uchraydigan xalq ertaklariga xos intertekstuallikning o‘ziga xos jihatlari va ularning yangi badiiy kontekstda qanday tranformatsiyaga uchrashini tahlil qilamiz.

Folklor matnlari (ertak, mif, doston kabilar) insoniyatning jamoaviy xotirasi va madaniy kodlarni o‘zida saqlaydi. O‘zbek folklorida ertaklarning o‘ziga xos o‘rni bo‘lib, uning elementlari bugungi kunda ham kundalik so‘zlashuvda, media va badiiy matnlarda keng uchraydi. Xususan, *Zumrad, Qimmat, Kenja botir, Aldar ko‘sa, No‘xatpolvon, Susambil,* kabi onomastik birliklar; *“ur, to‘qmoq”, “ochil, dasturxon”, “uchar gilam”, “qaynar xumcha”, “oltin tarvuz”, “borsa kelmas”, “gar saloming bo‘lmasa”, “ikki yamlab, bir yutardim”* kabi mashhur birikma va iboralar*; “Bir bor ekan, bir yo‘q ekan”, “murod-maqsadiga yetibdi”* kabi klishe-qoliplar presedent birlik sifatida faol qo‘llanadi. Shu jihatdan intertekstuallikni hosil qiladigan presedent ertak elementlarini quyidagi guruhlarga ajratamiz:

1.Presedent nomlar. Bularga ertak qahramonlari, joy nomlari kabi onomastik birliklar kiradi.

2.Presedent iboralar va klishelar. Ertaklarda uchraydigan, hammaga yaxshi tanish bo‘lgan birikmalar, iboralar va ertaklarning o‘ziga xos muqaddimasi hamda tugallanmasida keladigan klishe-qolip jumlalar kiradi.

J. Jenett tasnifidagi intertekstuallik turlariga ko‘ra, ertak motivlari yangi matnlar tarkibida quyidagi shakllarda namoyon bo‘ladi:

1. Gipertekstuallik: *parodiya va stilizatsiya:* zamonaviy yozuvchi ertak usulini ataylab taqlid qiladi yoki uni teskari mazmunda (istehzo bilan) qayta yozadi.

2. Paratekstuallik: *epigraflar va sarlavhalar.* Asar sarlavhasida yoki epigrafida ertak nomlari, iboralaridan foydalanish o‘quvchida darhol intertekstual aloqalarni hosil qiladi [Genette, 1997:97].

Folklor qat’iy qotib qolgan matn emas, u doimiy ijro, og‘zaki variantdoshlik va transformatsiyaga asoslanadi. Shu sababdan ham u – xalq og‘zaki ijodi. Yozma adabiyot folklordan oziqlanganda undan oddiy nusxa ko‘chirmaydi, balki u bilan dialogik aloqaga kirishadi. Bu esa intertekstuallikning asosini tashkil qilgan Baxtinning dialogik nazariyasi bilan aynidir.

O‘zbek badiiy matnlarida ham ertakka xos bo‘lgan presedent birliklar ijodkor konsepsiyasi, asar janri va uslubiga ko‘ra intertekstuallikning turli shakllarida uchraydi.

Ertak intertekstining eng aniq lingvistik ko‘rsatkichlaridan biri an’anaviy qolip jumlalardir. Bunday birliklar alohida leksik birlikdan ko‘ra kengroq nutqiy birlik sifatida namoyon bo‘ladi. “*Bir bor ekan, bir yo‘q ekan”, “qadimda bo‘lgan ekan”* singari konstruksiyalar o‘quvchining folklor matnlari haqidagi avvalgi bilimlarini faollashtiradi.

Yozuvchi N. Norqobilovning “Yangi ertak” hikoyasi bunga yaqqol misoldir. Hikoya *“Bir bor ekan, bir yo‘q ekan…”* jumlasi bilan boshlanadi. Matnning keyingi qismida ushbu konstruksiya bevosita ertak yozish jarayoni bilan bog‘lanadi: qahramon Oydin “bir bor ekan, bir yo‘q ekan”dan nariga o‘ta olmaydi.

Mazkur konstruksiya bu yerda oddiy boshlanma emas, balki ertak janrini bevosita faollashtiruvchi intertekstual kod, signal vazifasini bajaradi. Uning lingvopoetik funksiyasi o‘quvchini dastlabki ertakka xos kommunikativ vaziyatga yo‘naltirish va keyinchalik zamonaviy hikoya mazmuni bilan folklor modeli o‘rtasidagi tafovutni sezdirishdan iborat.

Sh. Xolmirzayevning “Qadimda bo‘lgan ekan...” hikoyasida ham shu usulni ko‘rish mumkin. Bu hikoyaning nomi ham ertakka ishora qiluvchi presedent birlik. Bu J.Jennet tasnifidagi paratekstual intertekstdir. Ertakka xos nomlar yoki jumlalarni yangi matn sarlavhasi sifatida keltirish badiiy matnlarda ko‘p uchraydigan hodisadir. Buni ertakka xos birliklarning xalq, jamoa ongida allaqchon presedentlikka aylangani bilan izohlaymiz.

– *Biron-biron joyga oborib adashtirib kelmaysanmi?*

– *Nima-a? – dedi O‘sar va nosini yo‘lkaga tuflab tashladi. – Esingiz joyidami?*

– *Endi, – kampir iljaygancha davom etdi: – bo‘lgan ekan-da qadimda…*

– *Qadimni qo‘ying! Bir narsa yedingizmi ?”* [Xolmirzayev Sh., 1990]

Bu misolda *“bo‘lgan ekan-da qadimda”* konstruksiyasi o‘zining bevosita kommunikativ vazifasidan tashqari, ertakka xos bayon usulini eslatuvchi intertekstual kod sifatida namoyon bo‘ladi. Muhimi, muallif uni real hayotiy dialog tarkibiga kiritadi. Natijada folklor manbasi va kundalik nutq o‘rtasida uslubiy kontrast yuzaga keladi.

A. Abdullayevning “Qo‘ng‘iz bekacha” hikoyasida ham ertakka xos boshlanma bevosita matn tarkibiga kiritiladi: *“Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, - deya*

bolasining boshini silagancha mahzun hikoyasini boshlardi onasi. – Yaqin o‘tgan zamonda ... bir kapaning ichida qo‘ng‘iz bekacha va uning ukalari yashar ekan...” [Abdullayev, 2026]. Bu boshlanma ham bevosita hikoya mazmuni bilan uzviy bog‘langan.

Demak, klishe-qoliplarning intertekstual vazifasi uning lug‘aviy mazmunidagina emas, balki jamoaviy xotirada shakllangan kommunikativ-uslubiy qiymatidan kelib chiqadi.

Zamonaviy badiiy matnda ertak intertekstining qo‘llanishi folklor birliklarining oddiy takroridan iborat bo‘lmaydi. Folklorga xos birlik yangi leksik, semantik va kontekstual munosabatlar tarkibiga kirar ekan, dastlabki ma’nosini saqlashi, kengaytirishi yoki yangi funksional-semantik xususiyat kasb etishi mumkin. Bunda intertekstual aloqa faqat bitta so‘z orqali emas, balki bir nechta birlikning o‘zaro semantik munosabati asosida ham yuzaga kelishi mumkin. Masalan, *“o‘gay ona”, “Qimmat”, “o‘rmon”, “adashtirib kelmoq”, “mehribon buvi”, “sandiq”* kabi birliklarning bir kontekstual maydonda qo‘llanishi o‘quvchi xotirasida “Zumrad va Qimmat” ertagi bilan bog‘liq semantik assotsiatsiyalarni faollashtiradi.

Zamonaviy badiiy matnlarda ertak intertekstining yana bir muhim ko‘rinishi presedent nomlarning qo‘llanishidir. Presedent nomlar badiiy matnlarga intertekstuallikning allyuziya shakli orqali kiritiladi. Alluziyada avvalgi matn to‘liq keltirilmaydi; unga ishora qiluvchi nom, obraz, qolip yoki boshqa til birligi yangi matn tarkibida qo‘llanadi. Shu sababdan bunday birliklar shaklan atoqli ot bo‘lsa-da, muayyan folklor matni, obrazlar tizimi yoki syujet modeli bilan bog‘liq assotsiativ ma’no qatlamini faollashtiradi.

Sh. Xolmirzayevning “Quyosh-ku falakda kezib yuribdi” hikoyasida *“Zumrad”* nomi ana shunday vazifani bajaradi. Hikoyada qahramonning “Zumrad”ga aylanishi bevosita “Ikki sandiq” ertagi bilan bog‘lanadi:

...Sizni bir kishiga o‘xshatdim, – dedim.

– Kimga?

– Zumradga…

– E, o‘zim Zumrad-ku? – dedi u…

– Siz “Ikki sandiq” ertagini o‘qiganmisiz? – deb so‘radim.

– “Ikki sandiq”? “Zumrad bilan Qimmat” emasmi? – dedi u. Va mening shoshib bosh irg‘aganimni ko‘rib, davomini aytdi: – Maktabda o‘qigandim. Qimmatni ajdaho yutib qo‘yadi…

– Shu-shu.

Shunda u birdan boshini o‘girib kuldi.

– O‘sha Zumradga o‘xshatdingizmi meni?” [Xolmirzayev, 2005 :12].

Bu yerda “Zumrad”ning semantik hajmi oddiy antroponimlik vazifadan kengayadi. U o‘zida *yetim qiz, o‘gay ona, o‘rmon, sehrgar kampir* kabi ertak komponentlari bilan bog‘liq assotsiativ semalarni mujassamlashtiradi. Shu sababli “Zumrad” presedent onomastik birlik sifatida namoyon bo‘lib, badiiy matndagi intertekstuallikni hosil qiladi.

Bunda intertekstual aloqa ertakning to‘liq matni keltirilishi orqali emas, balki uning markaziy obrazini bildiruvchi bitta atoqli ot vositasida allyuziya shaklida amalga oshiriladi.

Yuqorida keltirganimiz N. Norqobilovning “Yangi ertak” hikoyasida intertekstuallik faqat qolip boshlanma bilan cheklanmaydi. Hikoya tarkibida “*Zumrad va Qimmat”, “Qimmat”, “o‘gay ona”, “o‘rmon”, “adashtirib kelmoq”, “mehribon buvi”, “qizil sandiq”* kabi birliklar bir-birini semantik jihatdan to‘ldiradi.

Masalan: *“Ana, hozir o‘gay onasi aynan Qimmatga o‘xshash labi do‘rdoq, sochlari patila, haddan ziyod injiq va o‘jar qizini boshlab darvozadan kirib keladi, shunchaki emas, og‘zidan o‘t purkab kirib keladi. Va hovliga qadam qo‘yishi hamonoq tevarakka alang-jalang qaranib, o‘gay qiz – Oydinni qidirishga tushadi, so‘ng uni bo‘g‘zigacha yumushga ko‘mib tashlaydi. Mabodo bo‘yin tovlar bo‘lsa, uradi, so‘kadi va oqibat, kunlardan birida, “o‘rmonga adashtirib kel buni”, deya otasining qo‘liga tutqazadi. Otasi o‘gay onaga lom-mim demoqqa jur’ati yetmay, suyukli qizini o‘rmonda adashtirib keladi. U o‘rmonda uloqib yurib, to‘satdan daraxtga osilgan va shamolda tebranib, “taq-tuq” qilayotgan boltaga duch keladi…*

… biroq daraxtga osilgan boltadan keyingi voqea rivoji – o‘zi duch kelishi lozim bo‘lgan mehribon buvi hamda u kishi tomonidan tortiq etiladigan “qizil sandiq”ni o‘ylab, bu atrofda o‘rmon yo‘qligidan juda achinib ketadi” [Norqobilov, 2026:28].


Ushbu parcha lingvistik jihatdan muhim, chunki unda alohida birliklar emas, balki ertak bilan bog‘liq umumiy semantik maydon kompleks tarzda faollashgan. *“Qimmat”, “o‘gay ona”, “o‘rmon”, “adashtirib kelmoq”* va boshqa birliklar birgalikda “Zumrad va Qimmat” ertagining semantik modelini qayta tiklaydi.

Ertakka xos intertekstual birliklarning vazifasi va lingvopoetik tabiati folklorga xos leksemalarning yangi kontekstda qanday maqsadda qo‘llanishida ham namoyon bo‘ladi. Bunday birliklarning lug‘aviy, ertakdagi ma’nosi saqlanib

qolgan holda ularga qo‘shimcha konnotativ komponentlar yuklanishi mumkin. Bu ertakka xos birliklarning faqat o‘ziga ishora emas, balki konnotativ-semantik vazifada ham intertekstuallik hosil qilib, transformatsiyaga uchrashidir.

Yozuvchi N. Chorining “Qizg‘aldoq” hikoyasida *“Qadim-qadimda bo‘ri bakovul, tulki yasovul, qarg‘a qaqimchi, chumchuq chaqimchi bo‘lgan paytda ilon-u chayon ham tek emas ekan. U paytlardayam kambag‘alni tuyaning ustida it qoparkan, g‘aribning poyini poylab chaladiganlar bo‘lar ekan. Ey, nimasini aytayin, onangni qozi o‘ynasa, dodingni kimga aytasan, degan zamon ekan-da.* [Chori, 2026: 24].

Quyidagi parchaga e’tibor qilamiz: *bo‘ri bakovul, tulki yasovul, qarg‘a qaqimchi, chumchuq chaqimchi bo‘lgan paytda ilon-u chayon ham tek emas ekan*. Bu yerda o‘zbek ertaklarida faol uchraydigan klishe-qolipdan intertekst sifatida unumli foydalanilgan. Lekin u shunchaki nusxalanmagan. Badiiy matnda u transformatsiyaga uchragan:



Bu yerda shaklan o‘zgarish bevosita ma’nodagi kengayishga ham bog‘liq. Muallif ertakdagi hayvonlarning sifati sanalgan qatorga ilon va chayonniyam qo‘shib, ularning salbiy jihatlariga urg‘u beradi. Bu bevosita keying jumlalarda yana ham aniqroq ko‘zga tashlanadi. Bu yerda presedent birlik shunchaki ertakka ishora emas, balki yangi konnotativ-semantik mazmunni intertekstuallik orqali yuzaga chiqargan.

Hikoyaning boshqa qismida esa: *“...yoshini yashamay yalmog‘izning singlisiday qaridi-qoldi. ... Tunlarni uzundan-uzoq ertak aytib tonglarga uladi.*

Ertaklarida yuragi yoldor botir yigit musofir yurtda adashib, o‘z tuprog‘iga qayta olmay darbadar kezdi...” [Chori, 2026: 24]. Mazkur parchada *“yalmog‘iz”, “botir yigit”, “musofir yurt”, “adashmoq”, “o‘z tuprog‘iga qaytmoq”* kabi birliklar ertakka xos semantik maydonni shakllantiradi.

Ayniqsa, “*yalmog‘izning singlisiday”* qiyosiy jumlada “yalmog‘iz” leksemasining nominativ ma’nosidan tashqari, *qo‘rqinchlilik, g‘ayritabiiylik* va *salbiy* baho kabi konnotativ komponentlar faollashadi. Demak, folklorga xos intertekstual birliklar yangi kontekstda nafaqat nomlash, balki baholash va ekspressivlikni kuchaytirish vazifasini ham bajaradi.

Shu jihatdan ertak intertekstini lingvistik tadqiq etishda uning manbasini aniqlashning o‘zi yetarli emas. Intertekstual birlikning shakliy ifodasi, kontekstual qurshovi, semantik transformatsiyasi, konnotativ-assotsiativ xususiyatlari va lingvopoetik funksiyasi ham izchil tahlil qilinishi lozim. Ana shunday yondashuv ertak elementlarining badiiy matnda shunchaki folklorga xos janr sifatida emas, balki matnlararo semantik aloqa hosil qiluvchi intertekstual hodisa sifatida o‘rganish imkonini beradi.

Ertakka xos birliklarning zamonaviy badiiy matnlarda intertekstuallik hosil qilishining qisqa tahlili natijasida xulosa qilishimiz mumkinki, folklor, xususan, ertaklarga xos birliklar muayyan jamiyat a’zolari uchun kodlangan xabardir. Muallif o‘z matnida ertakka ishora (allyuziya) qilganda, o‘quvchi o‘sha kodni o‘z madaniy xotirasi orqali darhol dekodlaydi. Bu esa matnda birgina so‘z yoki jumla orqali kengroq ma’noni anglatish imkonini beradi, ya’ni tilning tejamlilik tamoyili ishlaydi. Ertakka xos birliklar badiiy matnning sarlavhasi, epigrafi, iqtibos va allyuziya shakli intertekstuallik hosil qiladi. Ba’zan ertakka xos iboralar, jumlalar tayyor holida matnga kiritilsa, ba’zan transformatsiyaga uchraydi. Shuningdek, o‘zbek badiiy matnlarida uchraydigan ertakka xos elementlar intertekst sifatida yangi matnlar uchun asos, ularga qo‘shimcha ma’no yuklash, to‘ldirish, ekspressiv va baholash vazifalarini bajaradi. Shuningdek, jamiyatning har bir a’zosi bog‘cha va maktab yoshidanoq ushbu manbalar bilan tanish bo‘lgani uchun, u millatni birlashtiruvchi umumiy madaniy fond vazifasini ham bajaradi.

ADABIYOTLAR

1.Abdullayev A. Qo‘ng‘iz bekacha [Elektron resurs]. – URL: https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/abdulatif-abdullayev/ (murojaat sanasi: 09.28.2026).

2.Genette G. *Palimpsests: Literature in the Second Degree*. – Lincoln: University of Nebraska Press, 1997. – 490 p. [“Five Types of Transtexuality” – P. 1-7].

3.Norqobilov N. Yangi ertak [Elektron resurs]. – URL: https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/normurod-norqobilov/normurod-norqobilov-yangi-ertak-hikoya/?lng=lat (murojaat sanasi: 02.10.2026).

4.Xolmirzayev Sh. Qadimda bo‘lgan ekan.. [Elektron resurs]. – URL: https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/shukur-xolmirzayev/shukur-xolmirzayev-qadimda-bolgan-ekan-hikoya/?lng=lat (murojaat sanasi: 01.10.2026).

5.Xolmirzayev Sh. Quyosh-ku falakda kezib yuribdi [Elektron resurs]. – URL: https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/shukur-xolmirzayev-1940-2005/shukur-xolmirzayev-quyosh-ku-falakda-kezib-yuribdi-hikoya (murojaat sanasi: 30.09.2026). – B. 12.

6.Chori N. Qizg‘aldoq // Bo‘ron tingan kecha. – [Elektron PDF]. – B. 24.

MUNDARIJA

KIRISH SO‘ZI		
Sirojiddinov Sh.S.	O‘zbek tilining xalqaro nufuzini oshirish zarurati	**6**
I. O‘ZBEK TILINING JAHON TILLARI TIZIMIDAGI O‘RNI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI		
Xolmanova Z.	O‘zbek tilining jahon tillari tizimidagi mavqeyini belgilashda lingvodidaktikaning o‘rni	**9**
Abdushukurov B.	Alisher Navoiy asarlaridagi qadimgi turkiy fe’llar semantikasi	**16**
Xudoyberdiyev J.	Mahmud Koshg‘ariy – singarmonizmning birinchi nazariyotchisi va ovrupolik olimlarning singarmonizm haqidagi xato qarashlari	**30**
Abdurahmanova M.	Alisher Navoiy merosi psixolingvistik talqinda	**45**
Xolmurodova M.	“Nasoyim ul-muhabbat” asaridagi tabobatga doir ayrim arabcha so‘zlar	**51**
O‘razova I.	Ot frazemalarning grammatik funksiyasi (Alisher Navoiy “Xamsa”sidagi frazemalar misolida)	**56**
Maxkamova D.	O‘zbek tili axborot-kommunikatsiya texnologiyalari	**60**

	terminologiyasi taraqqiyoti va tadqiqi	
Oripova M.	Sinestezik metaforalarda sezgilar interperatsiyasi	**66**
Muratova N.	Tilak va tabrik nutqiy aktlarida kommunikativ taktikaning tanlanish xususiyatlari	**72**
Abdullayeva G.	Folklor diskursida o‘xshatishlarning semantik-struktur va kognitiv tahlili	**78**
Xayrullayeva R.	Kichraytirish-erkalash shakllarining pragmatik ifodalanishi	**86**
Jumaniyozova Ch.	Sifat so‘z turkumida obyektiv va subyektiv belgilarning ifodalanishi	**90**
Abduvaliyeva K.	“Shajarayi turk” asaridagi ba’zi urug‘ nomlarining etnotoponim sifatidagi tahlili	**95**
Mullaboyeva Sh.	O‘zbek tilida o‘xshatishlar asosida estetik bahoning ifodalanishi	**107**
Mamadoliyeva M.	Graduallik kategoriyasining lingvistik tabiati va uning turdosh hodisalar bilan munosabati (Xayriddin Sultonov va Iqbol Mirzo asarlari misolida)	**115**
Mamarasulova M.	O‘zbek tili fonosemantik tahlilining fonologik asoslari	**130**
Siddiqova N.	O‘zbek xalq maqollaridagi eskirgan leksika: tarkibi,	**132**

	variantlanishi va lingvopoetik vazifalari	
Yusupova A.	Konseptlarning metaforik ifodalanishi va tahlil shakllari	**144**
O‘ralova N.	O‘zbek tilshunosligida parsellyatsiya hodisasi, uning sintaktik tavsifi va ega-kesim munosabatidagi o‘rni	**150**
Maxmudova M.	Kelishik kategoriyasining o‘rganilish tarixiga doir ayrim mulohazalar	**158**
Nurmatova S.	O‘zbek tilida rang ifodalovchi birliklarning lingvokognitiv strukturasi va konseptualizatsiya masalalari	**168**
Keldiyorova Z.	O‘zbek tilidagi shikoyat matnlarida nutqiy aktlarning ifodalanishi	**174**
Aliqulova Z.	Toponimlarning axborotni saqlash va uzatish xususiyatlari	**178**
Jurayeva Sh.	Hurmat kategoriyasining lisoniy birliklar bilan ifodalanishi	**183**
Karimova U.	Kultegin bitiktoshidagi xarakter-xususiyat bildiruvchi sifatlar tahlili	**188**
II. O‘ZBEK TILINI XALQARO MAYDONDA TARG‘IB QILISH STRATEGIYALARI		
Shamsiyeva M.	Peyzaj matnlari orqali turizmni rivojlantirish istiqbollari	**194**

Jo‘rayeva M.	Matnni tushunishda asar sarlavhasining ahamiyati	**201**
III. GLOBALLASHUV SHAROITIDA MILLIY TIL VA MADANIYATNI SAQLASH MASALALARI		
Ashirboyev S.	Adstrat sharoitidagi turkiy shevalarning o‘zaro ta’siri masalasi	**205**
Farhad Rahimi	Yakşı/ ĥoş, yap/ lap, ķop/ köp/ ĥob, appaķ/ pāk kelimeleri üzerine On the words yakşı/ ĥoş, yap/ lap, ķop/ köp/ ĥob, appaķ/ pāk	**210**
Xakimova M.	O‘zbek tilidagi metaforik konseptuallashtirishning milliy xususiyatlari	**232**
Abbozov O.	So‘x toponimlarining lingvomadaniy xususiyatlari	**238**
Komilova G.	O‘zbek tilida qadriyatlar tipologiyasining lingvistik verbalizatsiyasi	**245**
Xomidova M.	Zamonaviy o‘zbek badiiy matnlarida ertak elementlarining intertekstual xususiyatlari	**253**
Həsənzadə Səmra	Qrammatik metaforun türk dillərində reallaşması (özbək dilinin materiallari əsasinda)	**261**
Davronova Z.	Antroponimik freymlarda registrdan og‘ish fenomini (Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romani misolida)	**272**

Tursinbayeva Sh.	Badiiy matnda onomastik birliklarning lingvomadaniy imkoniyatlari	**276**
Bekmuradova I.	O‘zbek tilidagi ijobiy fe’l-atvor leksemalarining semantik tasnifi	**283**
Imomova I.	Fitratning dramatik asarlarida maqollarning qo‘llanilishi va funksional-semantik xususiyatlari	**291**
Turgunboeva D.	Globallashuv sharoitida o‘zbek va ingliz lingvomadaniyatida miqdoriy me’yor	**297**
Amrullayeva M.	O‘zbek tilida inson xarakterini ifodalovchi frazemalarning semantik mikromaydonlari	**305**
Abdug‘afurova A.	Lingvomadaniy kodlarning poetik faollashuvi: Faxriyor va Ulug‘bek Hamdam she’riyati qiyosida	**312**
Muzaffarova Z.	Badiiy matnda qo‘llangan metaftonimik birliklarning kognitiv xususiyatlari	**322**
Jumayeva M.	Son komponentli lug‘aviy birliklarning lingvokulturologik tahlili	**327**
Xolmo‘minova H.	Frazemalarning lingvomadaniy tahlili	**333**
IV. O‘ZBEK TILINI O‘QITISHNING ZAMONAVIY METODLARI VA XORIJIY TAJRIBA		

Xusanova N.	Raqamli ta’lim muhitida o‘qish savodxonligi transformatsiyasi vositasida boshlang‘ich o‘quvchilarning kreativligini shakllantirish	**337**
Mamirova X.	Bolalarda ko‘p ma’noli so‘zlarni o‘zlashtirishning psixolingvistik mexanizmlari va til ta’limiga ta’siri	**344**
Arolova N.	Maktabgacha yoshdagi o‘zbek bolalari nutqida sintaktik tejamkorlik	**351**
Mirnosirova D.	Nutqiy ijod haqidagi nazariy qarashlar talqini	**356**
Nurboboyeva R.	Erta yoshdagi bolalar ta’limida adabiyotning tutgan o‘rni	**363**
Keldiboyeva M.	O‘zbek tili omonimlarini o‘zlashtirishda kontekst va assotsiatsiyaning psixolingvistik roli	**369**
V. TARJIMA VA LINGVOMADANIY ALOQALAR: XALQARO HAMKORLIKNING MUHIM OMILI SIFATIDA		
Mustafa Said Arslan	Türkiye türkçesi ve özbek türkçesi arasindaki yakinliğin öğretimdeki yansimalari: özbek türkçesi öğretiminde karşilaşilan sorunlar ve öneriler	**378**
Kalanova D.	O‘.Hoshimov “Dunyoning ishlari” asarining koreyscha tarjimasida milliy-madaniy realiyalarning berilishi	**389**

Muhammadiyeva D.	Ko‘p tilli parallel korpusning tarjima birliklarini qiyosiy o‘rganishdagi imkoniyatlari	**400**
Abbasova Ş.	Özbek Yazı Dili ve Azerbaycan Türkçesi'nin Ağızlarında Akrabalık Terimleri	**411**
Qarshiyev K.	Badiiy tarjimaning adabiy-estetik tafakkur evolyutsiyasiga ta’siri (Jamol Kamolning tarjimonlik faoliyati misolida)	**418**
Rahimova Z.	Parallel korpuslarning tarjimashunoslik va qiyosiy tilshunoslikdagi ilmiy ahamiyati	**428**
Bozorova S.	Rus tilidagi ayrim gippologik birliklar tadqiqiga doir	**433**
Axmedova N.	O‘zbek va ingliz tillarida ruhiy holat birliklarining semantik farqlari va kontekstual tarjimasi	**442**
Davlatova R.	Sun’iy intellekt asrida inson nutqi, tilni idrok etish va psixolingvistik jarayonlar	**448**
Turdiyeva R.	Ingliz, qoraqalpoq va o‘zbek tillaridagi maqollarda zoonimlarning lingvokognitiv tahlili (“bo‘ri” misolida)	**462**
Ataniyazova S.	O‘zbek va ingliz tillarida mayl, zamon va modallikning muloqot xulqidagi funksional-uslubiy imkoniyatlari	**466**
Sayfiyeva K.	O‘zbek va ingliz fitonim komponentli maqollarida inson	**472**

	konseptining kognitiv metaforik modellari	
Tillayeva O.	O‘zbek va turk maqollarida erkak konseptining semantik maydoni	**485**
Musurmankova Sh., **Abdullayeva D.**	“Ikki eshik orasi” romanidagi murojaat birliklarining lingvomadaniy xususiyatlari va tarjima muammolari	**495**
Abdullayeva M.	Ingliz va o‘zbek maqollarida nutqiy antonimiyaning lingvokognitiv xususiyatlari	**502**
VI. AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA RAQAMLI MUHITDA O‘ZBEK TILINING RIVOJI		
Abjalova M.	O‘zbek tili multikorpusida aksentologik korpus va uning ahamiyati	**513**
Elova D.	O‘zbek normativ-huquqiy matnlarini lingvo-mantiqiy annotatsiyalash mezonlari	**524**
Kasimova Z.	O‘zbek tili iboralar korpusini yaratishning lingvistik va kompyuter asoslari	**534**
Nurullayeva O.	Barqaror birikmalar resurslari va parallel korpus uchun baza tuzish mezonlari	**542**
Musulmonova K.	Lingvistik ekspertologiyada matn identifikatsiyasi bo’yicha ekspert xulosalarini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari	**550**

Umarova Sh.	Kollokatsiyalarni korpus asosida aniqlashning nazariy va metodologik asoslari	**556**
Akramdjanova M.	Parallel korpusning madaniyatlararo kommunikatsiyadagi o‘rni	**564**
Buronova R.	Raqamli muhitda o‘zbek tilidagi neologizmlarning shakllanishi	**570**
Shodmonaliyeva Y.	Sentiment tahlilda tasdiq-inkor emojlarining diskursiv va pragmatik funksiyalari	**576**
Rayimjonova M.	Rauf Parfi she’riyatining leksik-statistik xususiyatlari	**591**
VII. XALQARO TA’LIM DASTURLARI VA O‘ZBEK TILI: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLAR		
Mirzəli Məleykə	Azərbaycanda özbək dilinin tədrisi: təcrübə və perspektivlər (bakı slavyan universitetinin timsalında)	**595**
Iskandarova G.	O‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘rganishda so‘z ma’nolarini o‘zlashtirish	**603**
VIII. O‘ZBEK TILI VA DIPLOMATIYA: XALQARO MUNOSABATLARDA TILNING O‘RNI		
Темирова Б., **Темирова М.**	Кыргыз, өзбек тилдери жана алардын адабий-маданий байланыштардагы ролу	**610**

Nazarov Q.	O‘zbek diplomatik diskursida metaforalarning kommunikativ-pragmatik xususiyatlari	**620**
IX. ILMIY TADQIQOTLAR VA LINGVISTIKADA XALQARO HAMKORLIK MASALALARI		
Berdak Yusuf	O‘zbek tilining shakllanish jarayoni va eski o‘zbek tili terminlari	**626**
Qurbonova M.	Xarizmatik nutq haqidagi nazariy qarashlar talqini	**632**
Umurzoqova M.	Erkin A’zam asarlarida lisoniy shaxs tiplari	**640**
Mirzaali Malika	O‘zbek tılının mavsumıy marosımlar leksıkasıda turkıy areal mavqeyı	**646**
Məmmədova A.	Xarəzm Türkcəsində Və Müasir Özbək Dilində Qohumluq Terminlərində Cins Kateqoriyasinin İfadəsi	**661**
Tuxtasinova M.	L.Z.Budagov lug‘atidagi umumturkiy leksik fond: “tur.” pometali leksemalarning tarixiy-qiyosiy tahlili	**670**
Abdullayeva S.	So‘z yasalishını qıyosıy-tıpologık tadqıq etısh metodologıyası va tahlıl mezonları	**681**
Xasanova G.	Kinesikaning lingvistik tadqiqi: shakllanish tarixi va kommunikativ funksiyalari	**688**

Rajabov N.	O‘zbek tilida ng fonemasining talaffuzi, imlosi va tarixiy taraqqiyoti	**695**
Mirzayeva G.	O‘zbek tilida tovush o‘zgarishlarining neyrolingvistik asoslari	**699**
Arislanova M.	She’riy matnning konseptual tizimi va lingvokognitiv xususiyatlari (Erkin Vohidov ijodi misolida)	**706**
Muhammadiyeva M.	“Shum Bola” qissasidagi ba’zi polisemantik leksemalar tahlili	**717**
Abdullayev G‘.	Fitrat she’riyatidagi turkiy so‘zlarning emotsional-ekspressiv xususiyatlari	**722**
Tursunova S.	Ironiyada implikatura fenomeni va yashirin ma’no mexanizmlari	**726**
Turobova N.	Badiiy diskursda morfologik vositalarning pragmatik xususiyatlari	**737**
Utegenova O‘.	O‘zbek tilida tasviriy ifodalarning badiiy matnda qo‘llanilishi	**744**
Komilova G.	Tarixiy-badiiy matnlar korpuslarini yaratish zarurati va ularni semantik modellashtirish masalalari	**749**
Haydaraliyeva Sh., Mo‘minova M.	O‘zbek tili leksikasining taraqqiyot tamoyillari va semema tushunchasi	**759**

Axmedova M.	Diskurs tushunchasining lingvistik talqini: nazariy yondashuv va ilmiy qarashlar	**768**
Komilova Sh.	Lingvokultrologiyada evfemizm va milliy mentalitet: ayollar nutqi misolida nazariy talqinlar	**774**
Suyunova D.	“Boburnoma” dagi leksik qatlamlarning “Boburiynoma”da badiiy qayta faollashuvi: leksik-semantik va funksional-uslubiy tahlil	**780**
Maqsudaliyeva Y.	Lingvistik ekspertiza va lingvokriminalistik tahlil: nazariya va amaliyot	**786**
Abdurasulova D.	O‘zbek qizlari nutqidagi neonim va slenglarning pragmalingvistik tadqiqi	**792**
Majidova M.	Tibbiy soha rahbarlari kinesik nutqining lingvosomatik tadqiqi	**797**
Abdullayeva I.	Gender qadriyatlarning aksiolingvistik tahlili	**802**
X. O‘ZBEK TILINING OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI VA MEDIA MAKONIDAGI O‘RNI		
Saydaliyeva M.	Kinodiskurs multimediali muloqot tizimi sifatida	**809**
Otaxonova S.	Mediamatnlarda antroponimlarning pragmatik imkoniyatlari	**813**